12.00.01 - Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta'limotlar tarixi
ORCID: 0009-0004-9845-850X

DAVLAT HUQUQIY SIYOSATI TRANSFORMATSIYASINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI

Xaydarova Marjona Olim qizi
Toshkent davlat transport universiteti
"Xalqaro ommaviy huquq" kafedrasi o'qituvchi assistenti
marjonkhaydarova3004@gmail.com
Tel: +9998908159939

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat huquqiy siyosati transformatsiyasining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi huquqiy asoslar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi normativ tartibga solish, institutlararo muvofiqlashtirish va ijro intizomini kuchaytirish orqali natijadorlikni baholash mezonlarini aniqlashtirishdir. Metodologiya sifatida doktrinal, komparativ va normativ-analitik yondashuv qo'llanadi. Natijalar huquqiy siyosat sikli uchun o'lchab bo'ladigan mezonlar va kafolat mexanizmlarini taklif etadi.

Kalit so`zlar: huquqiy siyosat, transformatsiya, samaradorlik, normativ tartibga solish, huquqiy monitoring, huquqni qo'llash, institutsional muvofiqlashtirish.

АНАЛИЗ ПРАВОВЫХ ОСНОВ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТРАНСФОРМАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПРАВОВОЙ ПОЛИТИКИ

Аннотация. В статье проводится системный анализ правовых основ повышения эффективности трансформации государственной правовой политики. Цель исследования состоит в уточнении критериев результативности через нормативное регулирование, межинституциональную координацию и укрепление исполнительской дисциплины. Методология включает доктринальный, сравнительно-правовой и нормативно-аналитический подходы. Результаты формулируют измеримые критерии для цикла правовой политики и предлагают механизмы юридических гарантий.

Ключевые слова: правовая политика, трансформация, эффективность, нормативное регулирование, правовой мониторинг, правоприменение, институциональная координация.

ANALYSIS OF THE LEGAL BASIS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF THE TRANSFORMATION OF STATE LEGAL POLICY

Abstract. This article provides a systematic analysis of the legal foundations for increasing the effectiveness of transforming state legal policy. The aim is to clarify performance criteria through improved regulation, inter-institutional coordination, and stronger enforcement discipline. The methodology combines doctrinal, comparative, and normative-analytical approaches. The findings propose measurable criteria for the legal policy cycle and legal guarantee mechanisms.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Keywords: legal policy, transformation, effectiveness, regulation, legal monitoring, law enforcement, institutional coordination.

KIRISH

Davlat huquqiy siyosati har qanday huquqiy tizimda normativ yo‘nalishlarni belgilash, huquq ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash orqali huquqiy taraqqiyotning institutsional “dvigateli” vazifasini bajaradi. Ammo huquqiy siyosat doimiy harakatda bo`lganligi bois u davr talabiga, boshqaruv texnologiyalariga, tartibga solish usullariga hamda huquqni qo‘llash amaliyotining dinamikasiga mos ravishda transformatsiyalanadi. Transformatsiya jarayonlarining o‘zi huquqiy tizim uchun tabiiy hodisa hisoblansa-da, ularning samaradorligi masalasi har doim ham avtomatik hal bo‘lavermaydi, negaki normativ yangilanishlar ko‘paygani sayin ularning o‘zaro uyg‘unligi, ijro etilish sifati, maqsadga erishish darajasi, natijani baholash mexanizmlari dolzarblashadi. Shu sababli “transformatsiya”ning huquqiy mazmuni bilan “samaradorlik”ning boshqaruv va huquqiy mezonlari o‘rtasida mantiqiy ko‘prik qurish ilmiy muammo sifatida maydonga chiqadi.

Zamonaviy davlat boshqaruvida huquqiy tartibga solish tizimi ortiqcha normativlik, eskirgan usullar sababli samarasiz bo`lib qolmoqda, shu boisdan “aqlli tartibga solish”, ochiqlik va jamoatchilik ishtiroki hamda ilmiy-texnik yutuqlarga tayangan transformatsiya zarur deb ko`rsatiladi [1].

Ilmiy adabiyotlarda huquqiy siyosatning konseptual tavsifi, huquq ijodkorligi sifati, huquqiy tartibga solish mexanizmlari, huquqni qo‘llash madaniyati hamda normativ monitoring masalalari alohida yo‘nalishlar sifatida tadqiqotlarning masalalari bo`lib kelgan. Ammo transformatsiya sharoitida aynan samaradorlikni oshirishning huquqiy asoslari, ya’ni qaysi normativ, institutsional hamda protsessual kafolatlar transformatsiyani natijador holga keltirishi va buni qanday mezonlar bilan o‘lchash mumkinligi masalasida integrativ yondashuv yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Amaliy jihatdan olib qaraganda ham muammo shundaki, huquqiy siyosatning maqsadlari ko‘pincha strategik hujjatlarda ifodalanadi, biroq ularning ijro mexanizmlariga bog‘lanishi va teskari aloqa orqali qayta ko‘rib chiqilishi doimo bir xil standartlarda ishlamaydi. Buning natijasida huquqiy siyosat siklining har bir bosqichi uchun aniq huquqiy mezonlar, javobgarlik masalalari va uning taqsimoti, monitoring protseduralari muayyan darajada bo‘sh qoladi.

Mazkur maqolaning maqsadi davlat huquqiy siyosati transformatsiyasining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi huquqiy asoslarni nazariy va normativ-analitik yondashuvda aniqlashtirish, ularni huquqiy siyosat sikli doirasida tizimlashtirish hamda samaradorlikni baholash mezonlarining huquqiy tabiatini asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun birinchidan, “huquqiy siyosat transformatsiyasi” va “samaradorlik” tushunchalarining huquqiy mazmuni chegaralanadi; ikkinchidan, samaradorlikni oshirishning huquqiy asoslari normativ, institutsional va protsessual bloklarga ajratib tahlil qilinadi; uchinchidan, huquqiy monitoring, baholash va teskari aloqa mexanizmlarining huquqiy dizayni bo‘yicha konseptual takliflar ishlab chiqiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi huquqiy siyosatni “normativ maqsadlar va amaliy natijalar” o‘rtasidagi bog‘lovchi tizim sifatida ko‘ruvchi doktrinal yondashuvga tayanadi. Doktrinal tahlil ushbu mavzuda shakllangan nazariy qarashlarni aniqlashtirish hamda tushunchaviy apparatni izchil qo‘llash imkonini beradi, negaki transformatsiya va samaradorlikning chegaralari turli maktablarda turlicha talqin qilinadi. Normativ-analitik usul orqali huquqiy siyosatni ifodalovchi, uni amalga oshirishni ta’minlovchi huquqiy

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

vositalar, jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasi, vakolatlar taqsimoti, protsessual talablar hamda javobgarlik mexanizmlari mantiqiy tahlil qilinadi, bu usul esa, o`z navbatida, samaradorlikning "huquqiy kafolatlar" bilan bog'liqligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Shuningdek, tizimli yondashuv huquqiy siyosat siklini "muammo identifikatsiyasi, normativ qaror, ijro, monitoring, qayta ko'rib chiqish" bosqichlari sifatida izchil ko'rishga yordam beradi, bu esa natijalarni bosqichma-bosqich o'lchash mezonlarini ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi [1]. Tadqiqot empirik-statistik hisob-kitoblarga tayantirilmagan bo'lsa-da, huquqni qo'llash amaliyotida uchraydigan tipik nomuvofiqlik holatlari normativ mantiq va institutsional dizayn nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, ushbu mavzuda asosiy e'tibor huquqiy mexanizmlarning tuzilishi hamda ishlash shartlariga qaratilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat huquqiy siyosati transformatsiyasining samaradorligi, birinchi navbatda, huquqiy siyosatning o'zi qanday huquqiy shakllarda ifodalanishi va mazkur shakllar ijro mexanizmlari bilan qay darajada bog'langaniga bevosita bog'liq. Transformatsiya jarayonida ko'pincha strategik maqsadlar, konseptual yo'nalishlar va normativ yangilanishlar bir vaqtning o'zida yuz beradi, shunday sharoitda samaradorlikka erishish maqsadida huquqiy siyosat hujjatlari va normativ-huquqiy aktlar o'rtasida "maqsad–vazifa–vakolat–resurs–javobgarlik–indikator" zanjiri huquqiy jihatdan mustahkamlanishi lozim. Ushbu zanjirning kamida bitta tarmog`i normativ aniq ifodalanmasa ham transformatsiya jarayoni "yangilanish" sifatida qolib, "natijadorlik"ka aylanmaydi. Tadqiqot natijalari sifatida mazkur maqola huquqiy siyosat transformatsiyasini samarali qilish maqsadida zarur bo'lgan huquqiy asoslarni uch zanjirda tizimlashtirdi: normativ moslik, institutsional muvofiqlashtirish, protsessual monitoring va baholash.

Birinchi zanjir normativ moslikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u huquq ijodkorligi sifatining samaradorlikka ta'sirini ko'rsatadi. Tadqiqotda normativ moslik deganda, faqat kolliziyalarni bartaraf etish emas, balki tartibga solishning maqsadga muvofiqligi, huquqiy aniqlik va barqarorlik holati tushuniladi. Samaradorlik nuqtai nazaridan qaraganda esa transformatsiya jarayonida normativ hujjatlar ko'payishi emas, balki ularning iyerarxiya hamda predmet bo'yicha muvofiqligi, huquqiy ta'riflarning bir xilligi hamda qo'llash uchun tushunarli mezonlar ustuvorligi asosiy indikator sifatida maydonga chiqadi. Bu yerda natija shundan iboratki, samaradorlikning huquqiy asosi sifatida "normativ ta'sirni baholash" elementlari majburiy protsessual talabga aylantirilsa, transformatsiya natijalari oldindan ko'ra olinadigan bo'ladi, bunda baholash normativ hujjatlarning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir doirasini, ijro xarajatlarini hamda huquqni qo'llashdagi xatarlarni huquqiy mezonlar orqali ko'rsatishga xizmat qiladi [2]. Tadqiqot natijasi sifatida normativ moslik transformatsiya samaradorligining sharti emas, balki o'lchanadigan komponenti ekanligi asoslanadi, chunki moslik darajasi monitoring vositalari bilan aniqlanib, teskari aloqa orqali normativ tuzatishlar uchun asos bo'la oladi.

Ikkinchi zanjir institutsional muvofiqlashtirishning huquqiy asoslarini yoritadi. Transformatsiya davrida vakolatlarning to`qnashishi, funksiyalarning takrorlanishi yoki javobgarlik "bo'shliqlari"ning paydo bo'lishi, ya'ni yuridik ixtilofning mavjudligi samaradorlikka eng kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan ekanligi aniqlanadi. Shu sababli samaradorlikni oshirishning huquqiy asosi sifatida vakolatlarni taqsimlashning nafaqat deklarativ, balki protsessual tartibga solingan modeli zarur, ya'ni kim tashabbus ko'rsatadi, kim ekspertiza qiladi, kim kelishadi, kim qabul qiladi va kim uning ijro natijasi uchun javob beradi, degan savollar normativ ravishda izchil bog'lanishi kerak. Tadqiqot natijalariga ko'ra, muvofiqlashtirishning samarali modeli ikki darajali bo'lishi kerak: bir tarafdan, umumiy strategik yo'nalishlar uchun markazlashgan muvofiqlashtirish, ikkinchi tomondan, sohaviy tartibga solish uchun

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

funksional avtonomiya va mas'uliyat. Bunda transformatsiya samaradorligi institutsional "muvozanat" bilan o'lchanadi: markazlashuv ijro intizomini kuchaytiradi, avtonomiya esa soha ehtiyojlariga mos bo`lgan tezkor yechimlarni ta'minlaydi, huquqiy asos esa bu ikki tamoyilning qaysi chegaralarda amal qilishini aniq belgilab beradi [3]. Natijada ushbu maqola institutsional muvofiqlashtirishni samaradorlikning mustaqil huquqiy indikatori sifatida talqin qiladi, u vakolatlar kolliziyasi, protsessual uzilishlar orqali baholanadi.

Uchinchi zanjir protsessual monitoring, baholash va teskari aloqa mexanizmlarining huquqiy holatiga taalluqlidir. Transformatsiya jarayonida ko'pincha normativ o'zgarishning o'zi yakuniy natija sifatida qabul qilinadi, holbuki samaradorlik tushunchasi "qabul qilingan hujjat yoki norma"dan emas, uning qo'llanilishi va ko`zlangan maqsadlarga erishishidan kelib chiqadi. Tadqiqot natijasida huquqiy monitoringni samaradorlikning markaziy kafolati sifatida mustahkamlash kerakligi asoslanadi, monitoringning huquqiy modeli obyekt, subyekt, muddat, mezon hamda natijani rasmiylashtirish tartibini belgilashi kerak. Shu jumladan, transformatsiyaning natijadorligi uchun monitoring natijalari normativ "qayta ko'rib chiqish" protsedurasi bilan bog'langan bo'lishi kerak, aks holda monitoring axborot yig'ish shaklida qolib ketadi.

Yuqoridagi uch zanjir bir-birini to'ldiradi, normativ moslik bo'lmasa, muvofiqlashtirish ishlamaydi, muvofiqlashtirish bo'lmasa, monitoring natijalari qarorga aylanmaydi, monitoring bo'lmasa, normativ moslik barqaror saqlanmaydi. Shunday qilib, samaradorlikni oshirishning huquqiy asoslari alohida vositalar yig'indisi emas, balki o'zaro bog'langan institutlar hamda protseduralar tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar huquqiy siyosatni huquqiy modernizatsiya jarayonining yo'naltiruvchi omili sifatida izohlaydigan yondashuvlarda transformatsiya natijadorligi normativ tizimning izchilligi va qo'llash mexanizmlarining barqarorligiga bog'lanadi [2]. Mazkur pozitsiyani tahlil qilgan holda maqola samaradorlik mezonlarini faqat normativ texnika darajasida emas, balki huquqiy siyosat siklini yakunlaydigan monitoring va qayta ko'rib chiqish bosqichlari bilan ham bog'lash kerakligini asoslaydi. Negaki normativ aktning sifatli yozilgani uning maqsadga erishishini kafolatlamaydi, balki norma qo'llanilishida institutsional quvvat va ijro resurslari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Misol sifatida aytadigan bo`lsak, Rossiya huquqshunoslik maktabida huquqiy siyosat va huquqiy monitoring masalalarini institut sifatida hisoblash tendensiyasi mavjud bo'lib, u tartibga solish natijadorligini huquqni qo'llash amaliyotidan uzib qo'ymaslik zarurligini ta'kidlaydi [3].

Maqolaning taklifi shundan iboratki, monitoringning "huquqiyligi" uni olib boruvchi subyektlar ro'yxati bilan emas, balki monitoring natijalarining normativ qaror qabul qilishga ta'sir etish majburiyati bilan belgilanadi. Agar monitoring natijalari faqat tavsiya xususiyatiga ega bo`lib qolsa, transformatsiya samaradorligi tasodifiy omillarga bog'lanib qoladi, aksincha, teskari aloqa protsedurasi normativ mustahkamlangan bo'lsa, huquqiy siyosat o'zini o'zi tuzatish xususiyatiga ega bo'ladi. Bu yondashuv Rossiya adabiyotidagi monitoring konsepsiyalarini funksional jihatdan davom ettiradi, lekin ularni samaradorlik indikatorlari bilan yanada yaqinroq bog'laydi [4].

Xalqaro adabiyotlarda, ayniqsa davlat boshqaruvida tartibga solish sifati va "better regulation" yondashuvlarida normativ ta'sirni baholash, manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuv, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish kabi mexanizmlar samaradorlikning asosiy shartlari sifatida ko'rsatiladi [5; 6].

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ushbu manbalar bilan muhokama shuni ko‘rsatadiki, transformatsiya sharoitida huquqiy siyosatning samaradorligi ko‘pincha protsessual kafolatlar orqali ta’minlanadi, ya’ni qaror qabul qilish jarayoni shaffof va tekshiriladigan bo‘lsa, natijadorlik ehtimoli ortadi. Ammo maqola ushbu yondashuvni huquq tizimining ichki mantig`i bilan bog‘laydi, protsessual kafolatlar, nafaqat, boshqaruv standarti, balki huquqiy aniqlik hamda adolatli qo‘llash talablari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan huquqiy institut hisoblanadi. Shu sababdan, normativ ta’sirni baholash transformatsiya samaradorligining “texnik” vositasi emas, balki huquqiy siyosatning barqaror bo‘lishiga xizmat qiluvchi huquqiy asos sifatida talqin qilinadi [5].

O‘zbek huquqshunoslik an’analarida huquqiy siyosatning institutsional asoslari, huquqiy islohotlarning tizimliligi, qonunchilikni takomillashtirish masalalari doktrinal muhokamalarda asosiy o‘rin egallaydi [7; 8]. Ushbu pozitsiyalar bilan solishtirganda, maqola transformatsiya jarayonini faqat “islohot” yoki “yangilanish” sifatida emas, balki boshqariladigan sikl sifatida ko‘radi va samaradorlikning huquqiy mezonlarini aynan shu siklga joylashtiradi. Bunda muhim farq shundaki, samaradorlikni oshirish masalasi faqat qonun ijodkorligiga qaratilmaydi, balki u vakolatlar taqsimoti, ijro intizomi, huquqni qo‘llash amaliyotidagi yagona yondashuv hamda teskari aloqa mexanizmlarini ham qamrab oladi.

Natijalar bo‘yicha tanqidiy mulohaza shundan iboratki, samaradorlik mezonlarini huquqiy hujjatlarda belgilashning o‘zi ham ehtiyotkorlikni talab qiladi. Haddan tashqari ko‘rsatkichbozlik normativ tartibga solishni formalizmga olib kelishi mumkin, bunda maqsad mazmuni emas, hisobot uchun qulay indikatorlar ustuvorlikka ega bo`lib qoladi. Shu sababli maqola taklif qilayotgan yondashuvda indikatorlar huquqiy siyosatning mazmuniy maqsadlari bilan bog‘lanishi, monitoring esa faqat sonli ko‘rsatkichlarga emas, huquqni qo‘llashdagi izchillik, kolliziyalarning kamayishi, protsessual muddatlarga rioya etilishi kabi sifat mezonlariga ham tayanishi lozim. Bu mulohaza xalqaro adabiyotdagi “evidence-based policy” talablari bilan mos keladi, negaki dalil deganda faqat raqamlar emas, balki huquqiy amaliyotning tahliliy ko‘rsatkichlari ham tushuniladi [5]. Demak, transformatsiya samaradorligini oshirishning huquqiy asoslari monitoringni huquqiy mazmun bilan boyitgan holda, formalizm xatarini kamaytiradigan dizaynni talab qiladi.

XULOSA

Maqolada davlat huquqiy siyosati transformatsiyasining samaradorligini oshirish masalasi huquqiy asoslar nuqtai nazaridan tizimli tahlil qilindi va samaradorlikning asosiy kafolatlari uch blokda konseptual ravishda asoslab berildi. Birinchi blok transformatsiya sharoitida normativ moslik hamda huquqiy aniqlikni ta’minlash, normativ ta’sirni baholash elementlarini protsessual talab sifatida mustahkamlash orqali natijadorlikka erishishni ko‘rsatadi. Ikkinchi blok institutsional muvofiqlashtirish va vakolatlar taqsimotining protsessual modeli hamda javobgarlikning aniq belgilanishi transformatsiyaning amaliy natijalarga aylanishi uchun hal qiluvchi omil ekanini asoslab berdi. Uchinchi blok huquqiy monitoring va teskari aloqa mexanizmlarini huquqiy siyosat siklining yopiq konturi sifatida ko‘rib, monitoring natijalarini normativ qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘lash transformatsiya samaradorligini barqaror oshirishini ko‘rsatadi. Tadqiqotning ilmiy hissasi samaradorlikni huquqiy kategoriyalar orqali o‘lchash, kafolatlash hamda boshqarish mumkin bo‘lgan konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi. Amaliy jihatdan natijalar huquq ijodkorligi jarayonida indikatorlar va monitoring protseduralarini huquqiy jihatdan aniq belgilash, vakolatlar kolliziyasini kamaytirish hamda ijro intizomini kuchaytirish bo‘yicha yo‘nalishlarni ko‘rsatadi. Kelgusidagi tadqiqotlar transformatsiya samaradorligini baholashning sohaga xos mezonlari, huquqni qo‘llash amaliyotida teskari aloqaning

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

institutsional dizayni va normativ ta'sirni baholashning protsessual standartlarini chuqurlashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. N. V. Komova et al. "Transformation of the Institutional System of Legal Relationship Regulation in the Context of Modern State Governance." Legal Order and Legal Values (2024). https://doi.org/10.23947/2949-1843-2023-1-4-16-22.
2. Peters B.G. The Politics of Bureaucracy: An Introduction to Comparative Public Administration. London:
3. Nersesyants V.S. Filosofiya prava: uchebnik dlya vuzov. Moskva: Norma, 2011. 752 s.
4. Tixonravov Yu.V. Teoriya gosudarstva i prava. Moskva: Yurait, 2019. 464 s.
5. Xabriyeva T.Ya., Chirkin V.E. Pravovaya politika i pravovoy monitoring. Moskva: Norma, 2016. 288 s
6. Ogus A. Regulation: Legal Form and Economic Theory. Oxford: Hart Publishing, 2004. 320 p.
7. Baldwin R., Cave M., Lodge M. Understanding Regulation: Theory, Strategy, and Practice. Oxford: Oxford University Press, 2012. 480 p.
8. Saidov A.X. Inson huquqlari va milliy huquqiy tizim. Toshkent: Adolat, 2012. 320 b.
9. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent: Adolat, 2018. 560 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.